

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIMI
VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“TASVIRIY SAN`AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI”

KAFEDRASI

**“Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi” ta`lim yo`nalishi
talabasi**

SAIPOVA GULNISA PAYZULLAYEVNANING

TARIXIY ME`MORCHILIK OBIDALARINI GRIZAILDA
TASVIRLASH VA O`QITISH METODI..

mavzusidagi

5110800- “Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi” ta`lim yo`nalishi bo`yicha
bakalavr darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV ISHI

Ilmiy rahbar: *O`qituvchi Soli Tolibovich
Sa`diyev*

Taqrizchi: Navoiy Madaniyat va san`at
maktabi o`qituvchisi; *F.Aslonov*

Navoiy-2018-19

MUNDARIJA

KIRISH	3-7
I-BOB. TASVIRIY SAN'ATNINIG O'QUVCHILAR TA'LIM-TARBIYASIDAGI ROLI VA O'RNI	
1.1. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi.....	8-12
1.2. Maktab tasviriy san'atining dastur va darsliklari.....	12-17
1.3. Tasviriy san'atning rivojlanish tarixi.....	18-21
II-BOB. TARIXIY ME'MORCHILIK OBIDALARINI GRIZAILDA TASVIRLASH VA O'QITISH METODI	22-23
2.1. Tarixiy me'morchilik obidalarini grizaylda tasvirlash.....	23-37
2.2. Badiiy asarlar orqali san'atshunoslik madaniyatini shakllantirish	37-42
2.3. O'zbek xalq rassomlarning tarixiy obidalarimizni madh etuvchi asarlari.....	42-57
Umumiy xulosa	58-59
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	60

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi: *“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma`naviy salohiyatga ega bo`lib, dunyo miqyosida o`z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo`sh kelmaydigan insonlar bo`lib kamol topishi, baxtli bo`lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz¹”.*

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning olib borayotgan siyosatining bosh omilidir. Bugungi kunda milliy ma`naviyatimiz rivojini tasviriy san`at namunalarisiz tasavvur etib bo`lmaydi. O`zbekiston zamonaviy rangtasvir san`atining asosiy tamoyillari uslublarning keng ko`lamliligi hamda yuqori va chuqur ijrochilik mahorati, obrazlar mazmundorligini saqlagan holda, an`analardan tortib, zamonaviy uslublar yo`lidagi izlanishlargacha namoyon bo`ladi.

Borliqni kuzatar ekanmiz, bizni qurshab turgan olam turli-tuman ranglardan iborat ekanligini ko`rib hayratga tushamiz. «Bu ranglarda qanchalik ma`no yotadi?» - deb o`yga tolasan. Ajdodlarimiz tabiatning shu sirli olamiga hayratga tushib, asrlar davomida uni o`rganib kelishgan.

Har bir rang bir olam ma`noni anglatadi. «Nima uchun tabiat yashil rangda yaratilgan? Buning sababi nimada? Agar tabiat qizil yoki sariq rangli bo`lsa, qanday ma`noni anglatgan bo`lar edi? Qaysi ranglar inson kayfiyatini ko`taradi? Qay biri salbiy yoki ijobiy ta`sir ko`rsatadi? Inson yoki hayvonlarning ranglari orqali ular salomatligini aniqlasa bo`ladimi?».

Asrlar davomida ajdodlarimiz, fan arboblari muayyan darajada ilmiy-tadqiqot ishlarini, tajribalarni o`tkazib kelishmoqda. Hozirda, hatto ba`zi rivojlangan mamlakatlarda maxsus rang institutlari va ilmiy laboratoriyalar bu borada samarali faoliyat ko`rsatib kelishmoqda. Bu o`rinda Yaponiyaning Tokio shahridagi dunyoga mashhur rang institutini ta`kidlash mumkin.

¹ Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O`ZBEKISTON” 2016 y

Yirik olimlar tomonidan rang tufayli ramziy ma`noda «so`zlashish», ranglar vositasida insonlarni davolash, tarbiyalash, ranglar jilg`asi orqali falsafiy fikr yuritish, rang orqali insonlarning ichki dunyosini anglash, shuningdek, ranglarning qishloq xo`jaligi unumdorligini oshirishda, iqtisodda va boshqa masalalarni ijobiy hal etishdagi mavqeyi haqida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ma`lumki, ta`lim tizimida rangshunos fani o`rgatiladi. Lekin, hozirgi zamon talabiga javob beradigan darslik o`quv-qo`llanma, elektron versiya va boshqalar yetarli emas. Rangshunoslik fanining o`qitish metodikasi bo`yicha ilmiy tadqiqot ishlari deyarli olib borilmagan.

Ajdodlarimizni amaliy san`at turlaridan qoldirgan ma`naviy merosiga murojaat qilsak, qanday buyum yoki bezak bo`lmasin, ular shakl, rang va hajmga ega. Masalan, o`sha bezakning rangi inson psixikasiga turlicha ta`sir etadi, bu ranglar o`ziga xos ramziy ma`noga hamda shifobaxsh xosiyatga ega bo`ladi. Shunday ekan amaliy san`atning bo`lajak usta - muallimi rangshunoslik fanini chuqur va atroflicha bilishi zarur.

Milliy raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun pedagogika universitetlarida yangi standartlar va o`quv ranglari asosida dasturlar tuzildi. Dasturlar asosida darsliklar yozilmoqda. Mazkur darslik ham pedagogika universitetlarining «Amaliy san`at» bakalavr yo`nalishdagi «Rangshunoslik» fani dasturi asosida yozilgan. Darslik shu yo`nalishdagi talabalar uchun mo`ljallangan.

Har bir mavzu uchun fotosuratlar, chizmalar, amaliy mashqlar, terminlar va adabiyotlar berilgan. Rangshunoslik fanini yaxshiroq o`rganish maqsadida boshqa fanlar yordamida tushuntirishga harakat qilindi. Bu fan fizika, kimyo, psixologiya, falsafa, mantiq, tarix, matematika, fiziologiya, tibbiyot, estetika, etika kabi fanlar bilan chambarchas bog`langandir. Darslikni yozishda akademiklar V.S.Kuzin va M.Nabiyev, olim va tajribali metodistlar X.Egamov, B.Azimova, N.Tursunaliyev-larning yozgan adabiyotlaridan ijodiy foydalanildi.

Metodika ta`lim-tarbiya jarayonida o`qituvchining o`quvchilar bilan ishlash usullarining mazniun xususiyatlarini qarab chiqadi. Ma`lumki, o`qitish jarayonida xilma-xil metodlar qo`llaniladi. Bu yerda ta`lim usuli, o`quv materiallarini

joylashishi (o`quv reja, dastur), ta`lim prinsiplari va o`quv tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir.

Metodika so`zi, avvalo, ta`lim va tarbiyaning samarali usullarini majmui ma`nosiga aytiladi.

«Metod» grekcha so`z bo`lib, «tadqiqot yo`li», «bilish usuli» ma`nosini anglatadi. Pedagogikada o`qitish metodlari deganda, umumiy o`rta maktab, o`rta maxsus kasb-hunar kolleji o`quvchilarining bilim, malaka va ko`nikmalarni egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o`qituvchilarning qo`llagan ish usullari tushuniladi.

Amaliy metodika esa ta`lim va tarbiyaning rivojlanish jarayonini o`rganadi. Pedagogik mahorat, ko`nikmalarni o`rganish va uni egallashga qaratilgan ma`lum iste`dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar (moyilliklar) mavjud bo`lishini talab etadi, chunki tasviriy san`at pedagogikaning mashaqqatli va murakkab hamda mas`uliyatli sohasidir.

O`qitish san`ati amaliy mashg`ulotlar mobaynida, uzoq ijodiy mehnat orqali egallanadi.

Demak, tasviriy san`at o`qitish metodikasi pedagogika ilmining ta`lim va tarbiyaning maqsad va vazifalariga tayangan holda samarali o`quv jarayonini tashkil etuvchi, shakl va yo`llarini tadqiq etuvchi sohasidir.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi–

Men o`z malakaviy bitiruv ishimda, Tarixiy me`morchilik obidalarini grizailda tasvirlash va o`qitish metodlari haqida, umumiy tushuncha berishni, tasviriy san`at mashg`ulotlarida, Tarixiy me`morchilik obidalarini tasvirlash metodikasini bir nechta misollar orqali keltirishni o`z oldinga maqsad qilib qo`yganman.

Ishning tadqiqot ob`ekti – maktab o`quvchilari uchun “tasviriy san`at” darslarida zamonaviy qalam tasvir ishlash mashg`ulotlarini loyihalash.

Ishning tadqiqot predmeti – umumiy o`rta ta`lim maktablari o`quvchilarida tasviriy san`atni shakllantirishda “qalam tasvir” darslarida chizma tasvir ishlash

mashg`ulotlarini loyihalash, o`quvchilarda “tasviriy san`at”ning milliy va jahon badiiy qadriyatlariga qiziqishlarini rivojlantirish mazmuni, shakli va metodlari.

Ishining tadqiqot farazi – umumiy o`rta ta`lim maktablari o`quvchilarida qalam tasvir san`atini shakllantirishda “tasviriy san`at” darslarida qalam tasvir ishlash mashg`ulotlarini loyihalash quyidagilarga amal qilinganda samarali natijalar beradi:

– “Tasviriy san`at” o`quv dasturi talablaridan kelib chiqib, san`at, amaliy san`at, milliy va jahon badiiy qadriyatlari chuqur o`rganilganda;

– o`rganilayotgan tasviriy san`ati asarlaridagi badiiy-estetik ob`ektlar chuqur tahlil qilinganda;

– ilg`or texnologiyalar, samarali metodlardan foydalanib, yoshlarning ijtimoiy-shaxsiy motivatsiyasi emotsional-estetik omil sifatida o`rganilganda;

– maktabda “tasviriy san`at” darslarida o`quvchilarning badiiy qadriyatlarga bo`lgan qiziqishlari faollashtirilganda va zamonaviy nazariy-metodologik qoidalarga amal qilinganda;

– “Tasviriy san`at” o`quv fani dasturini zamonaviy ravishda takomillashtirish va o`zbek xalq tasviriy san`atiga o`quvchilarning qiziqish mezonlari aniq belgilab olinganda.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:

– Oliy o`quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari, akademik hamda nafis san`at litseylarida qalamtasvir mashg`ulotlarini o`qitishda talaba-o`quvchilar uchun yengil usullardan foydalanib dars berish orqali bilim, malaka ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni.

–tasviriy san`at mashg`ulotlarida pedagogik inovatsion texnologiya usullaridan foydalangan holda natijali bilim berish.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi:

–qalam tasvir ishlash usullari kompozitsiyasini, yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan metodlari ishlab chiqildi;

– Oliy o`quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari, akademik hamda nafis san`at litseylarida o`qitiladigan qalam tasvir mashg`ulotlarining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi;

– “Tasviriy san`at” faninng qalam tasvir darslarida kompozitsiya ustida ishlash, unda chizma tasvir ishlash metodlarini o`rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlandi;

Himoyaga olib chiqiladigan g`oyalar:

1. Respublikamiz maktablarida qalam tasvir o`qitilayotgan “tasviriy san`at” darslarini zamonaviy loyihalash jamiyatning ta`lim tizimi oldiga qo`yayotgan ijtimoiy buyurtmasi ekanligi.

2. O`rganilayotgan muammoga mos “Tasviriy san`at” o`quv fani dasturining pedagogik-tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash.

3. “Tasviriy san`at” o`quv fani dasturini modifikatsiyalashtirish.

4. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`qitilayotgan “Tasviriy san`at” darslarini zamonaviy loyihalash tizimi, texnologiyasi, innovatsion metodlari, optimal vositalari.

5. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`qitilayotgan “Tasviriy san`at” darslarini zamonaviy loyihalash tizimi, mazmuni, jarayoni va texnologiyalarini rivojlantirish samaradorligi.

Malakaviy bitiruv ishimizni yozishda quyidagi:

– analitik tahlil, qiyosiy tahlil – pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, matematik statistika metodlaridan unumli foydalana oldik.

Malakaviy bitiruv ishi tuzilishi: kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami **62** sahifani tashkil etadi.

I-BOB. TASVIRIY SAN'ATNINIG O'QUVCHILAR TA'LIM-TARBIYASIDAGI ROLI VA O'RNI.

1.1. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi.

O'zbek halqi o'zining qadimgi tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari va madaniyati bilan faxrlansa arziydi. Chunki, O'zbekiston xududida eramizdan avval ham tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik turlari va me'morchilik nihoyatda rivojlangan bo'lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiob, Xalchayon, Tuproq qal'a, Bolalik tepa, Ayrtom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, Qo'yqirilgan qal'a, Ajina tepa, Teshik qal'a va boshqa bir qator joylardan topilgan. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, bu asarlar eramizdan avvalgi 4-1-asrlarda yaratilgan bo'lib ularning yoshi 5-6 ming yilga to'g'ri keladi. Bu asarlarning badiiyligi hozirga zamon rassomlari va xaykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan yuksak badiiy saviyadaga asarlarni usha davrda to'plangan ilg'or tajriba, tasviriy san'at maktablarisiz yaratish mumkin emas. Ma'lumki, san'at bir necha avlodning ko'p yillar davomida shakllangan an'analari, ustaning shogirdga o'tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so'zsiz umumiy badiiy ta'lim yunalishida bo'lmasa ham, kasbiy badiiy ta'lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi. Ma'lum davrlarda O'zbekiston xududidagi san'at taraqqiyotida uzilishlar ruy berganligining sabablari, Iskandar Zulqaynar, mo'g'illar, arab, rus istilollariga borib taqladi. Amir Temur mustaqil davlat tuzgan davrda tasviriy san'atning miniatyura turini gullab-yashnagani xam buning yaqqol dalilidir. Amir Temur davrida miniatyura va kitob grafikasi shunchalik tez rivojlandiki, u na faqat Sharq, hattoki Evropa mamlakatlari san'atiga xam o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada, Samarqand, Buxoro, Xirotda miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bog'dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Hind, Isfaxon, Turk miniatyura maktablari xam shakllandi va rivojlandi.

Mazkur miniatyura maktablari rassomchilikdan kasbiy ta'lim yo'nilishida rivojlangan bo'lsada, lekin ulardan umumiy ta'lim tizimidagi tasviriy san'atni o'qitishda bemalol foydalansa bo'ladi. Xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablari

uchun tayyorlangan dasturlarda san'atshunoslik asoslari, rangtasvir va kalamtasvir ishlash, naturaga qarab tasvirlash, borlikni idrok etish bo'limlari mavjud bo'lib, kasbiy badiiy va umumiy badiiy ta'lim tizimlari o'rtasiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi. Tasviriy san'atning nazariy asoslari xisoblangan rang, hajm, perspektiva, kompozitsiya asoslari kabilar, ham kasbiy, xam umumiy ta'lim tizimida o'rganiladi. Faqat tasviriy san'atni o'qitilishida talaba va bolalarning yoshlari, idroki, psixologik xususiyatlari, tasviriy malakalari hisobga olinishi lozim, xolos.

Tasviriy san'at tarixida buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzodga Xirotlik Mirak naqqosh ustozlik qilgani, unga minatyura rangtasviri sirlarini o'rgatgani haqida ma'lumotlar bor.



1.7. Rasm. Shuningdek, ustoz Mirok, naqqoshning Xirot “Nigoristoni” (San'at akademiyasi) bo'lganligi va unda Komoliddin Behzod tarbiya olganligi ham ma'lum.

Professor Orif Usmonov o'zining «Kamoliddin Bedzod va uning naqqoshlik maktabi», nomli kitobida Behzod Tabrizda yashagan vaqtda nafis tasviriy san'at maktabini yaratganini qayd qiladi. U yerda musavvir o'z atrofiga eng istedadli yoshlarni to'plagan ularga san'atining sir-asrorlarini o'rgattani va Tabrizda Sulton Mudammad, Mirzo Amir, Oko Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Mudammad Nur, Shomuxammad Nishopuriy, Yusuf Mullo Mir Ali, Rizo Abbosiy, Maxmud Muzaxxib, Mavlono Yoriy Xasan Bag'dodiy, Abdulla Sheroziy, Darvesh Mudammad, Mir Sayd Ali, Kosim Ali, Xeraviy singari unlab iste'dodli

musavvirlarni tarbiyalaganligini yozadi. Uning shogirdlari Behzodning tasviriy san'at uslubini davom etirganlari ham rasmiy ma'lumotlardan ayon.

O'zbekistonda hozirgi zamon ta'lim tizimining paydo bo'lishi XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Rossiyada Oktyabr inqilobi so'zsiz uning mustamlakasi hisbolangan Turkistonga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Yangi tuzum o'zini ko'rsatish maqsadida e'tibordan chetda qolgan chorizimning mustamlaka o'lkalariga e'tibor qaratdi. Shu maqsadda u bir guruh fan va madaniyat vakillarini Turkistonga yubordi. Shulardan bir guruxi Sankt Peterburg va Moskvalik rassomlar edilar. Ularning bir qismi ijodiy ish bilan shug'ullansalar, ayrimlari yoshlar badiiy ta'limiga o'z e'tiborlarini qaratdilar. Bu rassomlar Turkiston yirik shaharlarida badiiy studiyalar tashkil etdilar, o'z asarlarining ko'rgazmalarini o'tkazdilar.

1918 yilda Toshkentda badiiy kommuna ochiladi, bir yildan keyin Samarqandda Turkiston o'lka badiiy halq maktabi ishga tushadi. 1920 yilda Andijonda rangtasvir maktabi, Yangi Buxoroda san'at tugaragi tashkil etildi, musulmonlar uchun tasviriy san'at kurslari ochildi. Bir yildan so'ng respublikada badiiy maktab va studiyalar soni 29 taga etdi va unda shug'ullanuvchilar soni 500 kishidan oshib ketdi. 1921 yil kuzida ochilgan badiiy politexnikumda 170 o'kuvchidan 150 tasi o'zbeklar edi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarining boshqa fanlarni o'qitishdagi ahamiyati.

Ijodiy tafakkur butunlay yangi g'oyalar va tasavvurlarni vujudga keltiradi, shaxsda yashiringan qobiliyat va imkoniyatlarni, o'ziga xoslikni ruyobga chiqishga yordamlashadi. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bunday sifatlar olimlar uchungina emas, balki hama sohada ishlovchilar (injenermi, vrachmi, dehqonmi, nonvoymi v. b) uchun muhimdir.

O'quvchilarning ijodkorligi esa ko'proq bolalarda diqqat va tasavo'ni o'stirishi bilan bog'lanadi. O'quvchi ayniqsa, boshqa sayoralar, suv osti dunyosi, afsonaviy hayvonlar (dev, kengtavr, suv parisi, dengiz shoxlari v.b) bilan bog'liq bo'lgan rasmlar ishlaganda tasavvo'ni kuchli ishga solmasdan turib topshiriqni samarali hal qilolmaydi. qolaversa har bir ijodiy ishni tasavvursiz va diqqatsiz yechib bo'lmaydi. Shuningdek bu masala bolalarda his-hayajonni rivojlantirish bilan

bog`liq. Ma'lumki, bolalar nihoyatda hayajonga boy o`rgandilar. Bolalarni narsalar tasviridagi turfa rang va shakllar, real va afsonaviy obraz va ko`rinishlar, voqea va hodisalar larzaga soladi, ularni tulqillantiradi.

Tasviriy san'at o`quv predmetining muhim vazifalaridan biri, u bolalarda kuzatuvchanlikni o`stirish, borliqni ko`ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivojlantirish hisoblanadi. Ma'lumki, odamzod tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90 foizidan ortig`ini ko`z orqali oladi, qolgan 10 foizini qo`loq, burun, og`iz v.b. a`zolar orqali o`zlashtiradi. Bundan ko`rinib turibdiki, kishilar faoliyatida ko`z va xotirani rivojlantirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bu sifatlar bolalar tomonidan borliqni idrok etish mashg`ulotlarida, Shuningdek naturadan tasvirlash, san'atshunoslik asoslari mashg`ulotlarida alohida ahamiyatlidir. Bunday darslarda o`quvchilar narsalar va hodisalarning to`zilishi, shakli, rangi, o`lchovlari, fazoviy joylashuvi, harakat go`zalligini ko`zatadilar hamda ularni o`z xotiralarida saqlab qolishga harakat qiladilar. Kuzatuvchanlikni mohiyati shundaki, bunda bolalar narsa va hodisalar haqida keng va chuqur tasavo`rga ega o`rgandilar.

Tasviriy san'at darslarining eng muhim vazifalaridan biri tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlari asarlarini o`qishga o`rgatishdir. Tasviriy san'at asarlari erta hikoya, doston, roman kabi Ma'lum bir mazmunni aks etiradi. Biroq uni kitob o`qigandek o`qib bo`lmaydi. Tasviriy san'at asarlarini o`ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o`qiy oladilar. Xususan rassomlar chiziqlar, ranglar, o`lchovlar, kompozitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yoyordamida asar mazmunini ochib beradilar. Bu borada shuni alohida qayd qilish lozimki, san'at asarlari, ayniqsa, tarixiy, turmush janrlaridagi asarlar, ayrim xalq va mamlakatlar haqida tula-tukis va keng hamrovli Ma'lumotlarni o`z ichiga oladi. Bularni o`qiy olgan shaxslargina asarlarda ilgari surilgan g`oyalarni, tasvirlangan mazmunni chuqur idrok eta oladilar. Shuningdek ular asarning badiiy qiymatini aniqlay oladilar. Shu bilan bir qatorda asardaki go`zalliq ko`tarinkilik, qahramonlik kabi sifatlardan mamnunlik va zavqlanish hosil qiladilar.

Shuni yaxshi bilish lozimki, badiiy madaniyat asarlaridan hisoblangan tasviriy san'at, bu bolalarning kungil ochuvchi o'quv predmeti emas, balki bolalarga ijodkorliqni, tafakkorni badiiy-estetik didni, fahm-farosatni o'stiruvchi, shuningdek kuzatuvchanlik va hayotni bilishga o'rgatuvchi o'quv predmetidir. Tasviriy san'at ijodiy ishlar jarayonida o'z vazifalarini bajara borib bolalarga qalb ko'tarinkiligini olib keladi, ularing badiiy ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

1.2. Maktab tasviriy san'atining dastur va darsliklari.

Tasviriy san'at dasturlari.

Dastur – ma'lum bir fanning o'quv materiallarini o'z ichiga olgan, uni sistemali o'qitishda yordam beradigan metodik va nazariy mavzular va ularning mazmuni yoritilgan ilmiy qo'llanmadir.

Dasturlar maktablarning boshqaruvchilari va o'quv fanining o'qituvchilari uchun mo'ljallanadi. Dastur Davlat o'quv rejasidagi o'quv soatlari asosida o'qitiladigan fanning to'la mazmunini «sistemalilik» asosida o'qitish imkoniyatini bera oladigan davlat hujjati hisoblanadi.

Dastur o'qitiladigan fan sohasidagi tajribali uslubchi olimlar va mutaxassislar tomonidan tuziladi.

Respublikamizda mustaqillikka qadar fanlar Rossiya maktablari uchun tayyorlangan dasturlar asosida o'qitilar edi. Hozirgi kunda mahalliy va milliy materiallar asosida yangi dasturlar tuzildi, ular asosida o'qitila boshlandi.

1990-yillarda R.Hasanov, B.Oripov, H.Egamov, N.Abdullayev, S.Bulatovlar tomonidan bir necha variantdagi dasturlar tuzilgan edi. Lekin bu dasturlar bugungi kun talabiga javob bera olmay qoldi. Har bir dasturga o'qituvchi ijodiy yondashishi, ya'ni mutaxassis-o'qituvchi materialni o'z sharoitiga moslashtirib, shunga mos ish rejasini tuzib olishi mumkin.

Tasviriy san'at darsliklari

Ma'lumki, 70-yillargacha o'zbek maktablari uchun tasviriy san'at darsliklari bo'lmagan. O'zbekistonga RSFSR maktablari uchun tayyorlangan ayrim tasviriy

san'at o'quv qo'llanmalarigina kelib turardi. RSFSR maktablari uchun ham tasviriy san'at darsliklari 60- yillardan boshlab yaratila boshlandi.

O'zbekistonda darslik yaratishga ancha kech kirishildi. 1970-yildan boshlab, O'zbekistonda tasviriy san'at bo'yicha dastlabki «sinov» darsliklari yaratila boshlandi. R.Hasanov va A.Jilsovalar tomonidan 1970- yili 1- sinflar uchun, 1974-yili 2-sinflar uchun 1976- yili 3-sinflar uchun «Tasviriy san'at» darsliklari chop etildi. 1977- yilda R.Hasanov, B.Oripov, A.Isoxo'jayevlar tomonidan 4- sinf uchun «Tasviriy san'at» darsligi yaratildi. Bu darsliklar bir necha bor qayta chop etildi. Darsliklar tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirishda yaxshi natijalar beradi. Mazkur darsliklar qoraqalpoq tilida ham nashr etildi. Darslik dastur asosida sistemali bilim berishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan. Bu darsliklardan o'quvchining o'zi ham mustaqil foydalana olishi mumkin.

Darslik yozishning imkoniyati bo'lmagan hollarda uning o'rniga o'quv qo'llanmalar ham yaratiladi.

Bulardan tashqari, O'zbekiston maktablari uchun R.Hasanov va H.Egamovlarning I-II-III va IV sinflar uchun bir qator o'quv qo'llanmalari ham chop etildi.

Metodik qo'llanmalarda tasviriy san'atning o'qitilishidagi eng muhim muammolar va masalalar turli nuqtayi nazardan tahlil etib beriladi. O'quvchilar bilimini baholash, tasviriy san'atning 45 minutlik dars mashg'ulotlarini tashkil etish, o'tkazish, ularni sistemali takomillashtirib borish asosida dars va mashg'ulotlarni o'tkazish, ularda o'quvchilarga berilayotgan bilim va malakalarining samaradorligiga erishishning eng zamonaviy uslublari, mohiyati va mazmuni ish tajribalari ilmiy tadqiqotlar asosida izohlab beriladi.

Bundan tashqari, metodik qo'llanmalarda tasviriy san'at darslari uchun o'quv-didaktik sharoitning yaratilishi, tasviriy san'at ta'limining pedagogik holati, o'quvchilar diqqatining psixologik asosi, o'quvchilar bilimini aniqlashning baho mezonlari, mahalliy va chet ellarni tasviriy san'at materiallaridan foydalanish mezonlari, tarbiyaviy ishlarning mohiyati, mazmuni, maktabda tasviriy san'atdan

beriladigan bilim va malakalarning didaktik talablari kabi o‘quv-tarbiya tizimining eng dolzarb muammolari ilmiy jihatdan tahlil qilib beriladi.

Xullas, bugungi kundada maktab tasviriy san’atining o‘qitilishi, mashg‘ulotlarning takomillashtirib borilishi va darslar samaradorligiga erishishning qator metodik asoslari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular asosida maktab tasviriy san’at o‘qituvchilari o‘zlarining tasviriy san’at darslari samaradorligini oshirish imkoniyatlariga egadirlar.

Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish didaktikasi.

Didaktika haqida umumiy ma’lumot

Didaktika (yunoncha – o‘rgatuvchi, ta’lim beruvchi demak) pedagogika-ning ta’lim va tarbiya nazariyasiga oid sohasidir.

Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta’lim va tarbiya berish nazariyasi bilan shug‘ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta’lim mazmunini aniqlash hamda o‘qitishning eng samarador usul va yo‘llarini topish didaktikaning asosiy vazifasidir.

Didaktika – o‘qituvchida ma’lum qonun va qoidalar asosida ishlashni talab qiladi. Didaktika – o‘qituvchining mashg‘ulot olib borishiga yordam beradi, uni nazorat qiladi. Shu boisdan didaktika – sinf, sinf doskasi, parta, darslik, o‘quv qurollari, tarqatma materiallar, ko‘rgazmalar va boshqa texnik qurollarni doimiy, sifatli, talab darajasida bo‘lishini taqozo etadi. Shuningdek, u o‘quv jarayonining ilmiy asosda bo‘lishini ham nazorat qiladi.

Didaktika o‘z xususiyatiga ko‘ra dars berish yoki o‘quv-tarbiya ishining qonuniy chegarasidir. O‘qituvchi undan chiqib ham ketolmaydi, e’tibordan ham qoldirmaydi.

Didaktika juda qadimdan shakllangan bo‘lsa-da, XVII asrga kelib, buyuk chex pedagogi Y.O.Komenskiy (1592-1670) pedagogika fani tarixida yaratilgan didaktik prinsiplarni to‘plab, uni bir butun sistemaga soldi. Bu prinsiplarning maktab faoliyatida qo‘llanishiga oid qonun-qoidalarni ishlab chiqdi va butun bir didaktika sistemasini yaratdi.

Y.O. Komenskiy o'zining buyuk xizmatlari bilan maktab, o'quv tarbiya sistemasini yaratib berdi. U maktab sistemasiga, ta'lim sistemasiga va tarbiya nazariyasiga asos soldi.

Y.O. Komenskiy – sinf-dars sistemasini yaratib, maktabda o'qitiladigan umumta'lim xarakteridagi fanlarni ham tanlab berdi. Shu o'rinda umumta'lim fanlari qatoriga rasm darsini ham kiritdi. Rasm hamma fanlarni o'rgatishga asos bo'lishini ham aytib o'tdi.

Biz boshqa o'quv fanlari qatori tasviriy san'atni o'qitishda didaktikaning qanday qonun-qoidalaridan, talablaridan, prinsiplaridan foydalanish zarurligi haqida gapirganda uning tarbiyaviylik, ilmiylik, sistemalilik, ko'rgazmalilik, faollik, amaliyot bilan nazariyaning birligi va bog'liqligi kabi o'nlab prinsiplarini nazarda tutamiz.

O'qitishning tarbiyaviy ahamiyati

Tasviriy san'at predmeti o'quvchilarda badiiy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shunga ko'ra tasviriy san'atning asosiy va bosh vazifasi eng avvalo o'quvchilarning estetik didlarini o'stirish, mehnatga, ijodga qiziqtirish, Vatanga, xalqiga e'tiqodli bo'lishga o'rgatish va ularga ijobiy his-tuyg'ularni singdirish kabilarni amalga oshirishdan iboratdir. Shu boisdan tasviriy san'at avvalambor tarbiyaviy xarakterga ega bo'lishi kerak. Maktab tasviriy san'ati o'quvchilarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

Tarbiya masalasi tasviriy san'at darslarida natura va obyekt tanlash, ularni tahlil qilishdan boshlanib, rasm chizish jarayonida davom etadi. Rasmi chiziladigan narsa, voqea, obekt yoki san'at asarining tahlilida, avvalo, uning tarbiyaviy tomoniga e'tibor beriladi.

Masalan, darsda oddiy ko'za rasmi chiziladigan bo'lsa, o'qituvchi ko'zaning nima maqsadida ishlatilishi, uni kim yasagani, o'zbek kulolchiligi, amaliy san'ati, kulolning mehnati va san'ati haqida, so'ngra uning tuzilishi, rangi xususida ma'lumot beradi. Darsning ana shunday tarzda tashkil etilishi o'quvchilarning

xalqiga, amaliy san'atga mehri ortishiga sabab bo'ladi. Tasviriy san'atga doir har bir mashg'ulotda bunday jarayon sistemali takrorlanadi.

O'qitishning ilmiylik prinsipi

Didaktik prinsiplar asoschisi Y.O.Komenskiy: «Xudo aqldan butunlay mahrum qilmagan yoshlarning barchasi ta'lim oladi. Insonni aqlli, dono, zakovatli, yaxshi fazilatli, yuksak ma'naviyatli qilib tayyorlashga yordam beradigan barcha narsalar yoshlarga o'rgatiladi. O'qitiladigan narsalar mavhum emas, balki haqiqiy, to'g'ri obyektiv, ilmiy bo'lishi kerak», – deb ko'rsatgan edi.²

Tasviriy san'atning barcha darslarini ilmiylik prinsipi asosida olib borish imkoniyati dasturda to'la ta'minlangan.

Ilmiylik prinsipi o'quvchilarga rasmi chiziladigan natura, obyekt, mavzu, voqea-hodisalarni tahlil qilish davomida o'qituvchi tomonidan o'quvchiga berilayotgan har bir ma'lumot ilmiy, fan ma'lumotlari asosida bo'lishi lozimligini taqazo etadi. Buning uchun o'qituvchining o'zi tahlil qilayotgan narsa, obyekt yoki san'at asari haqida ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchining suhbat iшонchli, to'g'ri, ilmiy bo'lishi ta'minlanadi.

Masalan, «Kuzgi mevalar naturmorti» mavzusida rasm chiziladigan mashg'ulotda o'qituvchi naturmort uchun tanlanadigan olma, anor, tarelka, pichoq kabi predmetlarning har birini tahlil qiladi. Bu tahlilda olma yoki anor haqida botanika fani ma'lumotlari asosida suhbat o'tkaziladi. Unda olmani o'qituvchilarga ko'rsatib, uning shakli, tuzilishi, rangi, odamlar uchun zarurligi haqida fan ma'lumotlari asosida gapiradi. Pichoq va tarelka tahlili mehnat fani ma'lumotlari asosida olib borilishi lozim. Bu o'qituvchiga dars samaradorligini oshirishga imkon bersa, o'quvchilar uchun esa darsni qiziqarli, jonli bo'lishini ta'minlaydi.

Dars mashg'ulotlarida ko'plab san'at asarlari tahlil qilinadi. Unda ham tahlil qilinadigan san'at asarlarini o'rganish zarur ma'lumotlarning ilmiylikini ta'minlashi zarur.

Masalan, K.P.Bryulovning (5- sinfda) «Pompeyning so'nggi kuni asari» tahlilida o'qituvchi, eng avvalo, K.P.Bryulovning biografik ijodini yaxshi bilishi,

² Y. O. Komenskiy. Buyuk didaktika. T.,.

soʻngra Italiya (qadimgi Rim) ning eramiz boshlaridagi sanʼati va madaniyatini, Pompeya shahri hamda Vezuviy vulqoni haqida aniq maʼlumotlarga ega boʻlishi kerak.

Agar oʻqituvchi shunday Umiy maʼlumotlarga ega boʻlsagina, bu dars qiziqarli va samarali boʻladi. Umuman, tasviriy sanʼatning har bir mashgʻuloti ilmiylik asosida boʻlishi zarur. Buning uchun oʻqituvchi oʻz fanini, sanʼat nazariyasini yaxshi bilmogʻi lozim. Shuningdek, zaruriy metodik adabiyotlarni koʻproq oʻqishi va boshqa oʻquv fanlari bilan sistemali bogʻlanishi darkor.

Maʼlumki, tasviriy sanʼat insonni mehnatga, tafakkur qilishga, ijodga, goʻzallikni his qilishga chorlaydi. Kuzatishlar va ilmiy tadqiqotlar, tasviriy sanʼat yoshlarga faqat ilm-tafakkur, goʻzal estetik ideallarni beribgina qolmay, insonning eng muhim jihatlarini, yaʼni kuzatish, koʻrish, idrok qilish hamda tafakkur-tasavvurlarini rivojlantiradigan va asosiy vosita ekanligini isbotlamoqda.

Oʻquvchilar tasviriy sanʼat mashgʻulotlarida xilma-xil narsalar bilan tanishib, uning katta-kichikligi, shakli, undagi xunuk va chiroyli elementlarni aniqlaydilar, narsalar shaklini idrok etadilar, rang va tuslarni oʻrganadilar. Narsa shaklini idrok etish bilan birga, uni tahlil qilib, ong faoliyati asosida naturani tasvirga aylantirib, uni qogʻozga joylashtirish moʻljallanadi. Shundan soʻng natura tasviri daftar yuzasiga tushiriladi.

Lekin bu jarayon juda murakkab boʻlib, uni sogʻlom, rivojlangan bolagina uddasidan chiqa oladi. Bu jarayonda bolaning fikri chalgʻisa, shakl aniq chiqmaydi, rang topilmaydi. Shu boisdan bu faoliyatni faqat sogʻlom, yaʼni fiziologik va psixologik jihatdan toʻla rivojlangan bolagina amalga oshira oladi.

Tasviriy sanʼat mashgʻulotlarida bolaning koʻrish aʼzolari takomillashib boradi. Chunki har bir mashgʻulotda narsalarni eʼtibor bilan kuzatish va ularni idrok etish oʻrgatilib, bolaning diqqat-eʼtiborini bir nuqtaga qaratish malakasi ham beriladi. Shuningdek, tasviriy sanʼat mashgʻuloti oʻquvchilarni eʼtiborli, zehn bilan faoliyat koʻrsatishga barcha his-tuygʻularini jamlagan holda, oʻzida boʻlgan nazariy va amaliy bilimlarni ishga solishga oʻrgatadi. Binobarin, tasviriy sanʼat darslari oʻquvchilarning har tomonlama rivojlanishida asosiy omillardan biri boʻlib qoladi.

1.3. Tasviriy san`atning rivojlanish tarixi.

Ibtidoiy davr odamlari qoya va toshlarga ko'mir bilan turli tasvirlarni tushirib, so'ngra ular ustidan o'tkir toshni yurg'izib chiqqanlar, keyin esa tasvirlarni pushti rang bilan bo'yaganlar, shuni ta'kidlash lozimki, aksariyat tasvirlar afsonaviy va turli marosimlar asosida ishlangan (ritual) suratlar bo'lib, insonlarning o'sha davrdagi dunyo qarashlarining dastlabki ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtirgan.


Keyinchalik shular asosida yozish paydo bo'la boshladi va rivojlana bordi. Avvaliga piktografik (tasviriy). so'ngra ideografik, ya'ni har bir belgi so'z ma'nosini anglatuvchi, undan keyin esa harflardan iborat yozuvlar paydo bo'la boshladi.

Odamlar tasvirlash borasidagi dastlabki malakalarni tabiatni bevosita kuzatish va unga taqlid qilish yo'li orqali egallaganlar. Tasvirlashga o'rgatish paleolit davrida ham rivojlanmagan edi. Faqatgina keyinchalik neolit davriga kelib dehqonchilik va hunarmandchilikning boshlang'ich bosqichida insonning me'nat qilishi natijasidagina san`atga bo'lgan qiziqish uyqona bordi.

Eng avvalo, sopol idishlarga turli naqsh va tasvirlar tushirish paydo bo'la boshladi. SHu alpozda tasvirlar ishlashning dastlabki metodlari ham yuzaga keldi. endi hunarmand o'z shogirdining tasvirlarini qanday ishlashini kuzatib unga yo'l-yo'rig'lar ko'rsatardi, chunki shogirdning ustoz ko'rsatmalariga rioya qilishi keyinchalik shu hunarning davom ettishida muhim o'rin egallagan.

SHunday qilib tasvir bajarishni o'rgatishning dastlabki usullari paydo bo'ldi. Lekin ushbu metodlar aniq ishlab chiqilgan, yo'l-yo'rig'lar va tamoyillarga asoslanmagan edi. Tasviriy san`atga o'rgatish hamda maktablar tashkil etish ancha keyin boshlandi.

Tasviriy san`atga o'rgatish metodlari to'g'risida gap borganda avvalo, qadimgi Misrning yuksak rivojlangan madaniyatini misol qilib ko'rsatish mumkin. Tarixiy manbalarda yozilishicha qadimgi Misr maktablarida turli fanlar qatori rasm chizish ham keng o'rgatilgan. Maktabni tugatgan o'spirin xona ichki ko'rinishini tasvirlay olishi, katta maydonning chizmasini chizib, uning o'lchamlarini qo'ya bilishi, suv inshootlari tasvirini chiza bilishi shart bo'lgan. Tasviriy san`at



Qadimgi misrliklarning nisbat kanoni.

metodlarini maktablarda o'rgatilishini biz qadimgi misrliklar faoliyatida ko'rishimiz mumkin.

O'qitish rassom pedagoglar tomonidan aniq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan metod hamda qonunlar asosida olib borilardi. SHuni ta'kidlash lozimki, misrliklar rasm chizish va uning nazariy qonunlariga asos solganlar. O'sha davr maktablarida yoshlarga ta'lim berishning aniq ishlab chiqilgan didaktik tamoyillari bo'lmagan. Yoshlarga rasm chizishni o'rgatish, naturani kuzatish, tahlil etish, atrof tabiatdagi voqea va hodisalarni kuzatish orqali emas, balki oldindan ishlab chiqilgan andozalarda olib borilgan.

Misrliklardan farqli o'larog' qadimgi Yunon rassomlari tasviriy san'atni o'qitish borasida ta'lim tarbiyaga o'zgacha yondoshib, uni tubdan boyitdilar. Ular yosh rassomlarni ko'prog' tabiatni o'rganishga va uning ajralmas bo'laklaridan biri bo'lgan inson go'zalligini yuksak darajada tasvirlashga chaqirganlar. Parassiy, Evpomp, Pamfil, Apelles va, boshqa rassomlar o'zlarining nazariy asarlarida dunyodagi barcha narsa va buyumlar simmetrik, garmonik hamda matematik jihatdan o'lchamlarga ega ekanligi haqida yozadilar. Jumladan, eramizdan avvalgi 432-yilda yashab ijod etgan haykaltarosh Poliklet odam tana bo'laklarining bir - biriga nisbatlari haqida yozib, uning isboti sifatida «Dorifor» ma'budasini yaratgan. Keyinchalik rasm chizishni o'rganayotgan yoshlarga Poliklet yaratgan haykallardan birini o'ziga qarab tasvirlash majburiy ravishda ta'lim tizimiga kiritilganini ko'ramiz.

Aka-uka Dyupyuilarning ta'kidlashicha, o'simliklardan tashkil etilgan naqsh bo'laklari tabiatning barcha eng murakkab shakllarini o'zida mujassamlashtirgan.

Tasvirlash uchun buyum va narsalarni (qo'yilmalarni) o'quvchilar pedagogsiz o'zlari xoxlagan tarzda tashkil etardilar. Vazifalar esa aniq maqsadga qaratilmasdan engil-elpi bajarilar edi.



1.2. Rasm. Gipsli antik davr bosh namunasi.




1.3. Rasm Bola portreti



1.4. Rasm. Inson qomati.



1.5. Rasm. Gipsli tors namunasi



1.6. Rasm. Inson qomatini libossiz akademik tasvirlash

SHudan so'ng, Tallinn, Kiev, Tibilisi shaharlarida badiiy institut tashkil etildi. 1955-yili Nizomiy nomidagi TDPI qoshida ham Badiiy — grafika fakulteti tashkil etilib, turli yillarda iqtidorli rassom-pedagoglar — O'zbekiston xalq rassomlari M. Nabiev, N. Qo'ziboev, akademiklar R. CHoriev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arboblari A. Boymatov, M. Saidov, dotsentlar K. Eminov, Yu. Elizarov, T. Oganosov, N. Ten, H. Abduraxmonov va ko'plab yirik mutaxassislar faoliyat ko'rsatadilar.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, qaysi davrda bo'lishidan qat'iy nazar tasviriy san'atning rivojlangan eng yirik cho'qqisi, uni ilmiy asoslangan, mukammal

ishlab chiqilgan metodlarida hamda nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyatining uyg'unlashgan davrida o'z aksini topgan.

Qalamtasvirga oid nazariy bilimlar nixoyatda zarur. Qalamtasvir chizish qonun-qoidalar, undagi iboralar, turli ashyolar bilan ishlash texnologiyasi, inson va hayvonlarning plastik anatomiyasi, yorug' va soyalar, ularning buyum va narsalardagi ko'rinishlari: daraxt va shox-shabalarning tuzilish xususiyatlari kabilarni o'qituvchi mutaxassis o'quvchiga metodik bosqichlardan foydalangan holda to'g'ri tasvirlashni o'rgatishi va ilmiy jihatdan atroflicha tushuntira olishi kerak.

II-BOB. TARIXIY ME`MORCHILIK OBIDALARINI GRIZAILDA TASVIRLASH VA O`QITISH METODI.

O'quv materialining mazmunini belgilashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

O'quv materialining mazmunini belgilashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olidars materialining hajmi va murakkabligini belgilash. O'quv materialining mazmunini tevarak-atrof bilan bog'lash, o'tilgan materiallarni amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lash; o'quvchilarni mustaqil ijodiy ishlarining tizimini aniqlash, darsning jihozi hamda asosiy adabiyotlar, manbalarni belgilash.

3. Darsning didaktik va tarbiyaviy vazifalarini aniqlash. Amaliy ijodiy ishlarning kompozitsiya jihatdan murakkabligi o'quvchilarning yosh xususiyatlari, fazilatlarini hisobga olgan holda mos bo'lishi kerak.

4. O'quv materialining mazmuni va didaktik maqsadlariga mos keladigan ta'lim metodi va usullarini tanlash.

5. Didaktik vazifalar darsning o'zida bajarilishi. O'quv materialining mazmunini rejalashtirish vaqtida dastur doirasidan chiqmaslik va hokazo.

Umumiy o'rta maktabning tasviriy san'at dars mavzularini taqvimiy tasvirli rejalashtirish

Dars — ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishning eng asosiy shaklidir. Dars ijod san'ati, yaratish san'atidir.

Namunaviy dastur asosida tasviriy san'at darslarini rejalashtirish - eng murakkab ishlardan hisoblanib — u mavzularni tasvirli rejalashtirish dasturi deb nomlanadi.

Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish oldidan dasturni chuqur o'rganib chiqish zarur. Dastur asosiy bajariladigan topshiriqlarni va mashqlarni ro'yxatini beradi, ta'limni o'qitish mazmunini, yil davomidagi tartib va ketma-ketligini har bir topshiriqlarga ajratilgan soat hajmini va bajarish materiallarini k'o'rsatadi.

Sinfda har bir o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim va malakalari, o'quv chorak va semestrlari va haftalarga taqsimlanishi kerak. Dastur ta'limni o'quv vazifalarining murakkablashuvini metodik ketma-ketlikda ochib bersa ham, ammo o'qitishning birmuncha xususiy savollariga (muammolariga) ; taalluqli emas. Ma'lumki, dars jarayoni — ijodiy dars san'ati. Shuning uchun ham dastur ma'lum bir yo'nalishga umumiy harakatdir. Dasturda ta'limning asosiy yo'nalishi berilgan xolos, uni amalga oshirilishi, birmuncha xususiy savollarning javobini yechilishi — o'quv jarayo-nini tashkil qiluvchi o'qituvchining o'ziga bog'liq.

Ayrim bo'lg'usi o'qituvchi so'rashi mumkin, bajarishga imkoniyat bo'lmaydigan tavsiyanomalar berilgan bo'lsa, dasturni qanday qilib bajarish mumkin. Masalan, tasviriy san'at asarlari haqida suhbat o'tkazish darslarida ma'lum

asarlar reproduksiyalari tavsiya qilinadi, lekin ularni har doim ham kitob do'konlaridan xarid qila olmaysiz. Yoki qalamtasvir bo'limida naturmort ma'lum bir narsalardan tuzilgan bo'lishi mumkin, lekin qishloq joylarda ular bo'lmasligi mumkin.

2.1. Tarixiy me'morchilik obidalarini grizaylda tasvirlash.

Grizayl (fransuzcha grisaille, gris – kulrang so'zidan olingan) biron – bir rang (qora, jigarrang, ko'k ko'pincha kulrang)ning nozik tuzlanish ochdan to'q tusga o'tishi hisobiga yaratiladigan asar; bezak rassomligi turi. **Monoxrom** (bir rangdagi tasvir). **Bistr** (jigarrangli qadimgi buyoq, mo'yqalamda va patqalamda rasm ishlash vositasi). **Musavvada** (xomaki rasm) eskizlari. **Nyuans** (rang tusdagi nozik farqlar). **lessrovkalar** (quyuq surtilgan va qurigan bo'yoq ustidan uni jilovlantirish uchun tiniq, yarim tiniq bo'yoqlarni nozik holda ishlatish).

Grizayl qalamda kompozisiya chizish va bo'yoq bilan ishlashda o'ziga xos “ko'prik” bo'lib, bo'lajak mutaxassislarining, chuqur otroflicha bilim olishlarida osos bo'ladi. Uni rangtasvir va kompozisiya darslarida o'rganish muhimdir.

Grizayl (fransuzcha grisaille, gris – kulrang so'zidan olingan) biron – bir rang (qora, jigarrang, ko'k ko'pincha kulrang)ning nozik tuzlanish ochdan to'q tusga o'tishi hisobiga yaratiladigan asar; bezak rassomligi turi. XVII asrdan qo'llanib, klassitsizm uslubidagi binoning ichki bezaklarida haykaltaroshlik releflariga taqlid sifatida keng tarqalgan. Shuningdek tasvirning burtmali ko'rinishi uchun bir rangli emal (kulrang, pushtirang, jigarrang) bilan ishlangan hamda zarhallangan rasmlar ham grizayl deb ataladi. O'zbek tasviriy va amaliy bezak san'atida ham grizayl uslubida asarlar yaratilgan.

Mo'yqalam bilan chizmatasvir ishlashning turlaridan biri bo'lgan kulrang tusli grizayl deb ataluvchi “monoxrom” (bir rangdagi tasvir) rangtasvirlar qadimgi usta rassomlar ijodi namunalari orasida tez-tez uchrab turadi. Ular o'z asarlarini yaratish jarayonidagi tayyorgarlik bosqichlaridagi ushbu har tomonlama qulay usuldan unumli foydalanib, tugal, puxta, yuqori badiiy sifat darajasidagi tasviriy san'at namunalari yaratganliklari ma'lum. Grizayl ilgarilari rassomlik amaliyotida keng qo'llanilgan bo'lib, hozirgi paytda ham mahobatli ba'zida esa dastgohli

rangtasvirda me'morchilik loyihalarini bajarishda, shuningdek qisman bo'lsada xalq amaliy bezak san'atining ayrim usta rassomlari, xaykaltaroshlari, me'morlari, grafika mutaxasislari o'z eskizlarida shuningdek, muxtasar janrli kompozitsiyalarida, portret va manzaralarida, natyurmortlarida unumli qo'llaganlar.

Ular o'zlarining samarali ijodiy faoliyatlarida "bistr" (jigarrangli qadimgi buyoq, mo'yqalamda va patqalamda rasm ishlash vositasi) tush, siyoh, suv va yelim aralashtirib tayyorlanadigan boshqa ko'plab buyoqlarda mo'yqalam vositasida rasmlar yaratishgan. O'sha paytlarda foydalanishgan tasviriy san'at ashyolari, buyoq turlari, siyohlar chizishning samarali vositalari bizning davrimizda deyarli ishlatilmayapti. Hozirgi kunda bistr ham zamonaviy chizmasvir va rangtasvir texnikasida qo'llanilmaydi. Chunki endilikda ko'plab buyoq turlari sanoat miqyosida kerakli miqdorlarda ishlab chiqarilmoqda. Ammo shunga qaramay, bistr to'q jigarrang turi rasm chizish ashyosi sifatida o'z mavqiyini shu kungacha ham to'la yuqotgan emas. Agar qadimgi tasvirlash ashyolari va vositalari ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonida qayta tiklanib nazariy va amaliy tomondan o'quv mashg'ulotlariga tatbiq etilsa, qadimgi ustalar tajribasini o'rganishda qo'l keladi deb o'ylaymiz. Chunki talabalar o'tmish tajribalarini puxta o'zlashtirib olish orqali bilim doiralarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan: xitoy tushi kabi vositalar xaqida bilib olish undan foydalanish yo'llari texnika va texnologiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar shogirdlar uchun qiziqish uyg'otishi tabiiy. Shuning uchun tasviriy san'at ta'lim jarayonidagi mashg'ulotlar paytida tasviriy san'at texnologiyasiga oid bilimlarning nazariy asoslari muntazam ravishda, talabalar ongiga singdirib borilsa foydadan xoli bo'lmaydi. Mo'yqalamda rasm solish uchun eng maqbul hisoblanib kelgan qora tush ovrupa xitoy tushi paydo bo'lganda qadar lampa yoki sham qurimiga yelim aralashtirilgan suv qo'shib tayyorlanar edi. Quruq qattiq tush bilan tasvir ishlashdan avval uni ezib maydalab aralashtirish zarur. Buning uchun esa chinni idish yoki maxsus taxtacha ishlatiladi. Yaxshi sifatli tush iliq tovlanishiga ega bo'lib u quruqlikning yuqoriligi tus ko'rinishining timqoradan tortib to'las to'las ko'z ilg'aydigan darajadagi nozik nafis tovlanishlari bilan ajralib turadi. Ko'pgina qadimgi ustalar mohir musavvirlar,

muyqalamda qalamtasvirlar ishlashda ayniqsa, kompozitsiya “musavvada” (xomaki rasm) eskizlarini yaratishda juda unumli foydalanganlar. Bo’lajak asarlari, qalam tasvirlarining bir qismini grizayl texnikasidan foydalanib to’q ochlik tuslarining tasvirlarini umumiy xolati va soya yorug’lik hajm bo’rtmaligi shakllarining ko’rinish ifodaviyligi masalalarini hal qilib olganlar. Ayrim rassomlar esa rangda bajariladigan asar kompozitsiyasining ishlashda avval uning grizayl texnikasidagi mustaqil namunasini yaratib olganlar. Masalan XVI asrning taniqli rassomi P. Rubensning uzining 200 ga yaqin miqdorda bajargan grizayllari bilan bu borada mashhurdir. U katta hajmdagi bezakli mahobatli asarlarning loyiha namunalarini to’q jigarrang tusdan foydalanib tayyorlangani tarixdan ma’lum. Rassomning shunday asarlaridan bir nechta o’ntasi Sankt-Peterburgdagi “Ermitaj” muzeyining doimiy ekspozitsiyasidan o’rin olgan. Italiya uyg’onish davrining eng yuksak namunali tasviriy san’at asarlarining muallifi Tetsian ham yarim asarlarini yaratish jarayonida grizayl texnikasini qo’llagan. Muzeydagi ayrim tasvir ishlari sinchiklab kuzatilsa, bu yaqqol sezilib turadi. Bunday namunalar Djovanne Batista, Tepolo Paolo, Veroneze Fragonar, Rembrant, A.Ivanov ijodida ham o’chraydi. Ivanov umrining so’nggi davrida “Bibliya” va “Evangel” dagi voqealarga oid mavzularda yaratgan juda ko’plab eskizlar ayni shu texnikada bir rangli rangtasvirda bajarilgan. Talabalarning grizayl usulida ishlashi tasvirlardagi aniqlik, grafikaviy tuslararo “nyuans” (rang tusdagi nozik farqlar) soni ortishi hamda shakl hajmini yaxshi ifoda etishga erishishlari osonlashgani sezildi. Talabalarga qadimgi usta rassomlar qo’llagan usullarini o’rgatish ishi doimo nazariy va amaliy tarzda olib borilishi kerak. Shunda hozirgi zamon texnologiyalarining ijobiy salbiy va ibratli tomonlarini o’tmish an’ana tajribalari bilan qiyoslab tahlil etish mumkin bo’ladi. Quyidagi nazariy mashg’ulotlar tarkibiga kiritilgan ma’lumotlarimizda qisqacha keltirib o’tamiz. Qadimgi Italiyaning mo’yqalam ustalari to’q kulrangli “qoplamalaridan” (funt, gruntovka, mato sathini rasm ishalshga moslab tayyorlash) foydalanishga unda dastlabki “ost surtmalar” (podmalyovka, qalamtasvir ustida beriladigan dastlabki bo’yoq qatlami) oq va qora bo’yoqda bajarilib xoxishga qarab, quyuuq surtmalardan berilgan. Bu buyoqlarda chizgi va shakllar ko’rinishi aniqlangan

shundan keyingina ranglar jilvasiga o'tilgan. Unga keyingi jarayondagi "lessirovkalar" (quyuq surtilgan va qurigan bo'yoq ustidan uni jilovlantirish uchun tiniq, yarim tiniq bo'yoqlarni nozik holda ishlatish) bilan ishlash bosqichlari orqali texnologilarga amal qilib erishilgan. Yaxshi qotishga ulgurgan tayyorgarlik tasviriy ishning qalin bo'lib ketgan texnologiyaga zid kelgan joylarini qirib tozalab, yog'da tekislab, bo'yoqlarga yog'li lak qo'shib aralashtirib lessirovkalar bilan jilovlantirganlar. Ish jarayoni quyidagicha ikki qismga bo'lib olib borilgan: birinchi qismda qadimgi usta musavvirlar katta ahamiyat bergan chizgi va shakl topilgan. Qora va oq ya'ni och va to'q joylar belgilangan ular yordamida tasvir yaxlitligi ta'minlangan. Kompozitsiya muvozanatiga erishilgan. Yuqorida keltirib o'tilgan usulda grizayl texnikasiga murojaat etilganligi ma'lum. Masalan: tarixchi Ridolfining so'zlariga qaraganda bir kuni Tintorettodan unga qaysi bo'yoqlar yoqishi haqida so'ralganda ulug' rassom shunday javob bergan ekan: "Qora bilan oq" chunki ulardan biri soyalarga kuch beradi ikkinchisi esa relefga. Ishning ikkinchi qismida rangtasvirchilar barcha diqqat e'tibori "koloritni" hal qilish bilan band bo'lgan. Aytib o'tilgan rangtasvir bajarish usullarida qo'llanadigan keyingi yarimsuyuq va quyuq qilib ishlash tabiiyki surtilgan bo'yoqlarning yaxshilab quritilishi zarurligini talab qilgan. Bunday tashkiliy texnologik xolat esa o'z navbatida ma'lum ob-xavo sharoitlarida sekinlik bilan kechgan. Shuning uchun olib boriladigan ish jarayonini sekinlashtirgan. Ammo o'tmish rassomlari texnologiyaga jiddiy e'tibor bilan yondoshganlar va har bir ishni izchillikda bekami kust bajarganlar. Tarixdan ma'lumki usta musavvir Borovikovskiy o'z asarlarini yaratishda grizayl texnikasini dastlabki yordamchi texnologik foydali qulay, tadbir sifatida mohirona qo'llagan. U matoni kulrang qoplama bilan yopib, so'ng ustidan tasvirlarni chizib grizaylda "podmalyovka"lagan ya'ni ostki suyuq surtmalar qilib ishlov bergan. Keyin esa rang tuslarini jilovlantirgan. Shu narsa ham qizikki musavvir moybo'yoq tasvirlar ishlashda sarimsoq piyoz sharbatidan foydalanilganligi to'g'risidagi gaplar bizning davrimizgacha yetib kelgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, usta mahoratli va tadbirkor mo'yqalam sohibi ayrim paytlarda

xuddi mashhur afsonaviy iste'dod sohibi Van Dik singari moybo'yoq rangtasviriga suvli bo'yoqlarni ham komponent sifatida kiritganligini ko'rsatadi.

Hozirgi davrimizda ham talabalar tomonidan fan dasturiga muvofiq tarzda topshiriladigan xar bir vazifalarning grizayil texnikasidan foydalanib ishlanishi o'quv jarayoning muhim qismi hisoblanadi.

Shuning uchun grizaiylda rasm chizish qoidalarini mukkamal o'rganib olishning ahamiyati katta. Tarixiy me'morchilik obidalarini grizaylda tasvirlashni o'rganishdan avval naturadan rasm chizishni puxta o'rganilgan bolish kerak. Aks holda memorchilik obidalarini tasvirlash jarayoni samarasiz bo'ladi. Shu sababli grizaylda naturadan rasm ishlashga fikrimizni qaratamiz. Grizayl uslubida naturadan rasm ishlashni tushunish uchun och-to'qligi va shakli bir-biridan farq qiladigan ikkita narsadan pastanovka qo'yib qora yoki jigar rang bo'yoq bilan bajarib ko'rsa bo'ladi. Tasvirlash uchun tanlangan gips kub va sapol ko'zachani kursi ustida shunday quyinki ulardan biri oldinroq ikkinchisi orqaroqda joylashsin va ko'zacha kubni qisman bekitib turadigan bo'lsin. Natyurmortga uchinchi narsa sifatida katta-katta burmalangan oq surb matto kiriting va ko'zachani shuni ustiga qo'ying. Natyurmortga chap tomondagi derazadan tabbiy yorig'lik nurlari tushadigan bo'lsin. Orqa sath uchun och-kulrang tusdagi gazlama yoki qog'ozdan foydalaning. Natyurmortni asosiy formatda boshlashdan avval kichik hajmda homaki eskizlar chizib kompozitsiya va masshtab masalalarini hal qilib oling. Kompozisiyaning qulay variantini izlash paytida har bir narsaning o'zini tasvirlash bilan ulardan tekislikka tushayotgan soyani ham hisobga olish kerak.

Natyurmortga qulay nisbatda qarash nuqtasini tanlab chiziqli rasm solishga kirishing ehtiyot bo'lib kub va sapol ko'zachaning nisbiy o'lchamlarini va konstruktiv tuzilishini perespektivada o'zgarib ko'rinishini hisobga olib belgilab chiqing. Yordamchi va asosiy chiziqlarini qalamni botirmasdan yengil yelpi chizishga harakat qiling. Kubning ko'rinmay turgan qismini ham kuzga yaqqol kurinmayotgan qirralarini ham ko'zachaning tubidagi avalini ham bilinar-bilinmas qilib chizib ko'rish kerak. Chiziqli rasm ishlanayotganda uchirg'ichdan iloji boricha kamroq foydalanishga harakat qiling, aks holda qog'ozning silliq qatlami titilib

ketadi va bo'yoq tekis tarqalmaydi. Umuman olganda puxta bajarilgan chizikli rasm bo'yoqlar bilan ishlashni ancha yengillashtiradi. Qalamda gips buyumlarning rasmini solish mahsqida siz hajimdor narsalarning yorug' soya va ton nisbatlarini ifodalash jarayoni bilan tanishgan edingiz. Xuddi shunga o'xshash vazifa endi qora akvaril bo'yoq bilan bajariladi. Faqat bu pastanovkada har ikkala narsaning rang bir xil bo'lmagani uchun ularning och-to'qlik darajasini aniqlash talab etiladi. Akvarel bo'yoq bilan ishlashni boshlashdan avval qog'oz mo'y qalam bilan namlab chiqiladi. Keyin tasvirning oppoq eridan boshqa hamma suyuq bo'yoq eritmasi bilan qoplab chiqiladi. Soyalarni birdaniga qaraytirib yubormasdan asta-sekin bir qatlam qurigach ikkinchisini qo'yish yo'li bilan to'qlashtirib bering. Kub va ko'zaning shaklini sekin-asta aniqlashtirib borib ularni sirtida yorug'likning tarqalishini sinchiklab tahlil qiling. Oppoq gipsni sapol ko'zachada va yumshoq mattodan farqlanishini ifodalashga harakat qiling. Oxirgi bosqichda ingichka mo'y qalam bilan shakllarini maydalab ishlab chiqish narsalarning asoslari yonida soyalarni bir oz to'qlashtirib natyurmortning yahlit va hamohang ko'rinishiga erishish kerak. Naturalar o'rtasidagi nisbatlarini to'g'ri ifodalang. Tasvirni naturaga yaqinroq joyga qo'yib yana bir marta butunligicha natura bilan solishtirib tahlil qilib chiqing. Oq surb mattodagi qatlamlarning shaklini tasvirlashga alohida ahamiyat bering. Garchi kub ham surb ham oq bo'lsada ularning yorug' va soyalar bir xil ohanga ega emas. Sirtlarning fakturasini esa faqat diqqat bilan kuzatib har bir nozik o'zgarishni tasvirlash tufayli ifodalash mumkin. Grizayl uslubida rasm solish ko'p rang ish usuliga o'tish uchun tayorgarlik bosqichi bo'lib unda mo'y qalamni ishlatish yo'llari va akvarel bo'yoqlarining xususiyatlarini o'rganish uchun imkoniyat katta.

Grizayl uslubi bilan bir nechta natyurmort tasvirlab o'rgandan so'ng butun ranglar majmuasi bilan natyurmortning rang-tasvirini ishlashga o'tish mumkin bo'ladi.

Natyurmortning ko'p rangli tasvirini yaratish ancha murakkab ish bo'lib rangshunoslik nazariyasini batafsil o'rganishni akvarel guash moy bo'yoqlarning xususiyatlarini yaxshi bilish va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashni talab etadi.

Grizayil usulida rasm ishlash talabada quydagi hislatlarni shakillantiradi.

-tasvirda yaxlitlikni his etish sezgisini;

-katta shakilni lo'nda qilib ko'rsata olish qobilyatini;

-tasvirdagi to'q, och, o'rtacha tusli qisimlarining o'zaro muvozanatini to'g'ri belgilay bilishi;

-to'qlikdan oqqacha bo'lgan oraliq tuslar farqlanishining nozik o'zgarishlari sonini yaxshi ajrata olish malakasi va maxorat sifatlarini;


-tasvirlarni bo'yashda muhim oraliq tajriba mashqlari grizayil yordamida bajarishi kerakligini;

Tarixiy me'morchilik obidalarini tasvirlashda ham bu tajriba va va bilimlar juda zarur bo'ladi. O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida me'morchilik san'ati boy va rang- barang madaniy merosimizning eng ajoyib qismini tashkil etadi. O'zbek diyori o'zining vujudga kelib gullab – yashnagan san'at turlarining betakrorligi bilan dunyoga mashxur.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng Vatanimiz hududidagi qadimiy yodgorliklarini saqlash ularni qayta tiklash, ta'mirlash ishlariga keng yo'l ochib berilmoqda. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon va Toshkentdagi obidalar qayta tiklanmoqda. Me'morchilik san'ati yodgorliklari o'tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho san'at asarlarining namunalari bo'lib xalqimizning va shu bilan birga jahon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan badiiy madaniy merosni tashkil etadi. Ularni tiklashda xalq ustalari jalb etilib, ustalar o'z shogirdlari bilan, birgalikda obidalarga sayqal berishmoqda.

Talabalar tasviriy san'at mashg'ulotlarida "Tarixiy me'morchilik obidalarini grizaylda tasvirlash" mavzusida rasm ishlaganlarida me'morchilikning turli shakllarini ko'radilar, uning katta-kichikligini, shaklini, shaklidagi xunuk va chiroyli elementlarini aniqlaydilar, narsa shaklini idrok etib, rang va tusini o'rganishadi.


Samarqahd shahrida joylashgan tarixiy me'morchilik obidalarini grizayl texnologiyasi asosida ishlagan kompozitsiyalari.



2.1.1-rasm. Registon ansanbli.



2.1.2-rasm. Go'ri-Amir maqbarasi.



2.1.3-Rasm. Shohi-Zinda maqbarasi



2.1.4-rasm. Ulug'bek madrasasi.

Me'morchilik ko'rinishini grizaylda tasvirlash jarayonida idrok etish bilan birga, uning tasvirini yaratish tahlilini o'rganib, ong faoliyati asosida me'morchilik ko'rinishini tasvirga aylantirib, qog'oz yuziga joylashtirish bo'yicha hisob-kitob qilinadi. Shundan so'ng me'morchilik ko'rinishini tasviri qog'az yuzasiga tushiriladi. Bu mashg'ulotlar davomida diqqat, idrok, xotira, tasavvur, did emotsiya rivojlanib, rasm chizish malakasi ortadi. Chunki bu mashg'ulotlarda talaba me'morchilik ko'rinishini kuzatadi va ko'radi, uni ong faoliyatida tahlil qiladi, rang tuslarini me'morchilik ko'rinishi ichidan topib, uni qog'ozga tushiradi.

Lekin bu jarayon shunchalik murakkabki, sog'lom rivojlangan odam talabagina uning uddasidan chiqq oladi. Qarangki, bu jarayonda talabaning fikri chalg'isa, boshqa yoqqa ketsa, shakl chiqmaydi, rang topilmaydi. Shu boisdan hamma talaba ham rasm chiza olmaydi.

Rangtasvirdagi rangni ham faqat uni atrofda o'rab turgan ranglar bilan solishtirib mutanosiblik munosabatlarini xisobga olgan xolda tasvirlash lozim . Bu murakkab jarayondir. Lekin bu ishni grizayl texnikasidan foydalanib bajarilsa ishning keyingi bosqichlariga asonlik bilan erilishi mumkin.

Buxoro

Buxoroga borib, shu qadimiy shaharni ko'rgan kishilarning barchasi minoralarning tepalaridagi g'alati ko'rinishdagi «qalpoqlarga» e'tibor bergan bo'lsalar kerak. Bular laylak uyalaridir. Umidning timsoli bo'lgan bu oppoq qushlar shaharning ramzi, uning barqarorligi va sadoqatining ham ramzi bo'la oladi. Boy go'zal shahar juda ko'p marta turli-tuman dushmanlarning bosqinchilik hujumlarining maqsadi bo'lgan, mo'g'ul-tatarlarning bosqini eng og'ir, yer bilan yakson qiluvchi darajada bo'lgan edi. Lekin Buxoro har gal qaytadan aynan o'sha joyda tiklanib, o'z zamini-yu a'analariga sodiq bo'lib qaytadan barpo bo'lar edi

Buxoroga asos solinishi qadim-qadimgi asrlar tubiga borib taqaladi. 1997 yilda YuNESKO ning qaroriga ko'ra butun madaniy dunyo uning 2500-yilligini nishonlagan edi. Afsonalar shaharning paydo bo'lishini tarixiy shaxs obrazi bilan bog'liq Zardo'shtiylik xudolaridan biri – Siyovush bilan bog'laydi. Buxoroning eng qadimiy qismi uning qal'asi – Ark hisoblanadi, bu yerda arxeologlar eramizdan avvalgi IV - III asrlarga oid bo'lgan ba'zi topilmalar borligini aniqlashdi. Bu balandligi 20 metr bo'lgan katta tepalik bo'lib, u yerda ilgari Buxoro amirining saroyi, uning harami, xazinasi, qurol-yarog' saqlanadigan xonalari, o'ta xavfli jinoyatchilar uchun zindon bo'lgan edi. Hozirgi paytda ular tiklanmoqda.

Buxoroning eng qadimiy yodgorliklaridan biri X asrning boshida Somoniylar sulolasining asoschisi tomonidan qurilgan Ismoil Somoniy maqbarasidir. Maqbara usti yarim sfera shaklidagi gumbaz bilan yopilgan kub shaklidagi binodir. Somoniylar maqbarasi O'rta Osiyoning me'morchiligida bizgacha yetib kelgan, pishiq g'ishtdan qurilgan birinchi bino bo'lib, bunda g'ishtlar ham qurilish uchun, ham bezatish uchun ishlatilgan.

Shaharning asosiy va eng baland ko'tarilgan inshooti – 1127 yilda qurilgan Kalon minorasidir. Bu har tomonlama komil muhandislik inshooti, Buxoroning sathidan 47 metrga ko'tarilib turgan ulkan minoradir. O'zbekistonda eng baland bo'lgan ushbu minora tepaga chiqqan sari sal ingichkalashib boradi, uning dumaloq aylanasi o'rab turgan halqalar turli rangdagi sirlangan g'ishtchalar bilan

bezatilgan. Shu bilan birga minoradagi naqshlarning turli-tumanligi va takrorlanib kelishi sodda va komil me'morchilik shakllarini boyitadi.

Buxorodagi o'rta asrlar me'morchiligining alohida xususiyati – ko'cha yoki maydon bilan bir-biridan ajralib turgan va old yuzasi, darvozalari bilan bir-biriga qarab turgan ikkita ulkan inshootdan iborat bo'lgan majmualarning barpo etilishi edi. Shu asosda shaharning markaziy me'morchilik majmuasi yaratilgan – Poi Kalon («Ulkan inshoot osti») maydoni. Uning minorasi gumbazli o'tish yo'li bilan benihoya ulkan juma masjidi – Masjidi Kalon bilan bog'langan. Uning qarshisida XVI asrning boshida hatto bizning davrimizda ham ishlayotgan Mir-Arab madrasasi barpo etilgan.

Chashma-Ayub mozorining barpo etilishi ham XII asrlarga oid, deb hisoblanadi. Afsonalarga qaraganda, Injildagi payg'ambarlardan biri – Ayub (Iov) Buxoroning bu suvsiz qismidan o'tayotganda hassasi bilan yerga urgan – natijada bu yerda top-toza, shifobaxsh suvli buloq paydo bo'lgan. XIV asrda Amir Temur o'zining yurishlaridan birida olib kelgan xorazmlik ustalar buloq va quduq ustidan bino barpo etganlar hamda quduqdagi baland tortish qurilmasi ustidagi konus shaklidagi gumbazga Xorazm uchun xos bo'lgan shakl berganlar. Ularga qaraganda mashhur Chor-Minor masjidi esa yangi qurilgan bino, deb atalishi mumkin – u XIX asrda qurilgan. Bu masjidda to'rtta uncha baland bo'lmagan minoralar hamda gumbazlar zangori rangda bo'lib, masjidga o'ziga xos qiyofa bag'ishlaydi.

Sharq me'morchiligi uchun sun'iy suv havzalari bo'lgan hovuzlardan nafaqat amaliy maqsadlarda, balki shaharni yanada har tomonlama bezatish uchun ham foydalanish odatdagi holdir. Buxoroda saksontadan ortiq bunday obodonlashtirilgan hovuzlar bo'lib, shaharni ta'minlab turar edi. Ulardan eng mashhur bo'lgan hovuz Labi-hovuzdir.

Yirik poytaxt-markaz bo'lgan Buxoro shahri nafaqat o'zining masjidu madrasalari, maqbarayu-mozorlari bilan, balki saroylari, hashamatli uylar, karvon-saroylar, hammomlari va ko'p gumbazli savdo majmualari bilan ham mashhur edi. Shaharda ko'chalarning kesishuvida – guzarlarda qurilgan Toqi-Zargaron («Zargarlarning gumbazi»), Telpak-Furushon («Telpaklar sotuvchilarining

gumbazi») va Toqi-Sarrofon («Pul almashtiruvchi sarroflarning gumbazi») saklangan, ular hozirgacha savdo rastalari sifatida ishlatilmoqda. Ularning birinchi qurilishi va ishlatilishidan nomlari ham dalolat bermoqda.

O'rta asrlarda Buxoro Markaziy Osiyodagi barcha musulmonlarning muqaddas shahri bo'lgan edi, bunda nafaqat diniy hurmat-e'tibor, balki estetik tuyg'ular ham ifodalanar edi. Buxoro shon-sharaf mujassam bo'lgan shahar deb hisoblanar edi, u yerda eng mashhur kishilar yig'ilar edi. Islomda Qur'ondan keyin ikkinchi o'rinda turgan diniy kitob – eng haqqoniy hadislarning to'plami bo'lgan «Al-jami as-sahih» ning muallifi Imom Al-Buxoriy edi. Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) shaharga yaqin bo'lgan qishloqdan kelib chiqqan edi, u shaharda o'z faoliyatini boshlagan. Islomda eng muqaddas shaxslardan biri shayx Bahovaddin Naqshband, so'filar ta'limotining asoschisi, buxorolik misgar edi. Shayxning go'rini ziyorat qilish Makkaga borib bajarilgan haj marosimiga tenglashtirilar edi. Bahovaddin Naqshbandning maqbarasi hozir ham shaharning eng muqaddas joyi deb hisoblanadi.

Buxorodan dunyoga taniqli bo'lgan tarixchi olim Narshaxiy, yirik shoirlar Rudakiy va Daqiqiylik kelib chiqqan. Lekin ayni shu shaharda, odamlarning gap-so'zlariga qaraganda xalqning sevimli namoyandasi, o'tkir so'zli «tinchlikni buzuvchi» latifago'y Xo'ja Nasriddin Afandi ham yashagan. Hazilkash donishmand Afandining latifalari va teran fikrlari son-sanoqsizdir.

Musulmon allomalari, mutafakkirlarining, me'morlarning va shoirlarning ko'p asrlik ijodiyoti tufayli shahar «Islom cho'qqisi», «Buxoroi Sharif», «Muqaddas shahar» faxrli unvonlariga musharraf bo'lgan. O'ylaymizki, Buxoro shahri haqiqatan ham bu unvonlarning barchasiga loyiq.

Shu bilan birga shahar zamonaviy sanoat va madaniyat markazidir. Unda zamonaviy qurilgan aeroport, oliy o'quv yurtlari, kollejlar, litseylar. Teatrlar, sport-sog'lomlashtirish inshootlari va markazlari ham mavjud.



2.1.5-rasm. Eski shahar bozori.



2.1.6-rasm. Dehqonlar qo`zg`oloni (Ark).



2.1.7-rasm. Eski shahar ko`chasi.



2.1.8-rasm. Samarqand darvozasi.



2.1.9-rasm. Noma`lum obida.

2.2. Badiiy asarlar orqali san`atshunoslik madaniyatini shakllantirish.

Umumiy o'rta ta'lim maktab va kasb-hunar kolleji o'quv-chilarini badiiy ta'lim muammolari uzviy ravishda san'at fakultetida pedagogik kadrlarni tayyoriash bilan bog'liqdir. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida talabalarning san'atshunoslik madaniyatini rivojlantirishiga alohida e'tibor qaratiladi. Talabalarni san'atshunoslik madaniyatini rivojlanganligi tasviriy san'at atamalarini¹³ va tushunchalarini ma'lum darajada o'zlashtirishi, o'ziga xos xususiyatli atamalarni lug'aviy boyligi bilan ta'riflanadi va ulardan foydalanishi hamda ma'lum darajada san'atshunoslikka oid fikrlashlarining shakllanishi bilan belgilanadi. Shu boisdan san'at fakulteti talabalarini san'atshunoslik madaniyatini rivojlantirish, badiiy ta'limning til asoslarini o'rganish, maktabda tasviriy san'at darslarida atamalar va tushunchalarni o'rgatishning metodlarini o'zlashtirish uchun ta'lim jarayoniga quyidagi ma'lumotlarni tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchilar dars jarayonida asarlarini tahlil qilishda turli xil tasviriy san'at atamalardan bevosita foydalanadilar. Ayrim o'qituvchilar esa rus tilidagi «peredniy plan», «sredniy plan», «dalniy plan» kabi atamalarni birinchi plan, ikkinchi plan, uchinchi plan deyishadi. Bu so'zlar ma'noni to'la yoritib bermoqchi. «Plan» o'zbek

^{3 1} S. Abdirasilov. *Tasviriy san'at atamaları*. T.: TDPU, 2003.

tilida «reja» degan ma'noni bildiradi. Agarda to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib ishlatilsa - birinchi reja, ikkinchi reja, uchinchi reja deyiladi. Shuning uchun tasviriy san'at asarlarini tahlil qilishda o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun atamalarni mazmuniga mos tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Tajribali tasviriy san'at o'qituvchilari bu atamalarni — «oldingi ko'rinish», «o'rtangi ko'rinish», «uzoqdagi ko'rinish» deb qo'llashadi.

«Tabiat ko'rinishi», «manzara» (peyzaj) atamalar bir-biriga yaqin tushuncha, ammo ikkalasi ham ikkita ma'noli atama. Tabiat ko'rinishi — biz ko'rish va sezgi qobiliyatimiz orqali qabul qiladigan real voqealik bo'lsa, manzara — shu ko'rinishning badiiy tasviri.

Tasviriy san'atni o'rganish jarayonida talabalar ayrim qiyinchiliklarga duch keladi. Bular quyidagi sabablar bilan bog'liqdir:

- milliy maktablar tasviriy san'at darsliklari bilan to'liq ta'minlanmagan;
- hozirgi kunda maktab o'quvchilari dars jarayonida atamalar mazmunini chuqur anglamaydi;
- tasviriy san'atni o'rgatish bo'yicha metodik qo'llanma va tavsiyalar juda ham kam;
- pedagogika bilim yurtlarida, oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonida atamalardan unumli foydalanilmaydi;
- rassom-pedagog mutaxassislarni tayyorlaydigan institut va bilim yurtlari o'qituvchilarining har bid o'z holicha atamalar tuzishadi. Bu esa betartiblikka va noaniqlikka olib boradi.

O'zbek tiliga o'girilgan tasviriy san'at atamalarining har xilligiga quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

1. Mutaxassis tarjimon bo'lmaganligi atamalarni shakl va mazmunini buzilishiga olib keladi.
- 2 Hozirgi tasviriy san'atning o'zbek tilidagi terminologiyasida bir so'zga bir necha nomlar qo'llaniladi.
3. Atamalarning har xil bo'lishlik sababi tasviriy san'atning o'zbek tilidagi izohli lug'atini bo'lmasligiga bevosita bog'liqdir.

Tasviriy san'atning o'zbek tilidagi terminologiyasini tartibga keltirish va izoh berish borasida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari bilan terminologiyasining umumiy jarayonlaridan quyidagilarni qo'llash zarur:

1. Rus tiliga tarjimasiz o'tkazilgan baynalmilal atamalarni o'zbek tiliga ham tarjimasiz o'tkazish zarur. Masalan, akvarel, assimetriya, vitraj, galereya, gravyura, mozaika, ofort, panno, pastel, simmetriya, statuya, faktura. fon, estamp, eksterer, etyud va boshqalar.

2. Ba'zan rus tilidagi atamaga loyiq bo'lgan atama topilmasa, shu atamani tarjima qilmasdan o'z nomida qoldirilsa o'rinlidir. Masalan, vizirovanie (chamalash), pah'tra, zarisovka, ottenok, mazok (surtma), naturshik, axromatik, applikatsiya, janr, illustratsiya, xolst (mato) va boshqalar.

3. O'zbek tilidagi tasviriy san'at atamalarini tuzishda o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zarurdir. Ba'zan rus tilidagi bir so'zlik iborani o'zbek tilidagi bir so'z bilan ma'nosini yetkazib berish qiyindir. Shuning uchun ikki so'zni chiziq (-) orqali qo'yib yozish shart. Masalan, kontrast - qarama-qarshi, svetoten — yorug' soya, blik — yaltiroq dog', byust — gavda - haykal..

4. Atamalarni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda iloji boricha, ichki shaklini saqlash zarurdir. Masalan, rus tilidagi «ornament» atamasi faqatgina «gul» ma'nosini bildiradi. O'zbek tilida esa bu ma'no «naqsh» iborasida qo'llanilayapti. To'g'rirog'i «ornament» atamasi «o'yma naqsh» yoki «naqshli gul» tarzida tarjima qilinishi mumkin. «Jivopis» atamaning ma'nosi «tirik, jonli» va «yozish» tushunchalarini bildiradi. Tahlil qilib qarasak jonli yozish bilan rangli tasvirlash iboralari orasida uzoqlik borligi ma'lum bo'lib turibdi. Shu kabi ikki shaklning mazmunini qoldirgan holda tarjima qilib «rangtasvir» iborasi qo'llanilmoqda.

5. Atamalar bilan birgalikda tasviriy san'at asarlarini nomlarini ham to'g'ridan-to'g'ri emas, balki mazmuniga ko'ra tarjima qilish zarurdir. Masalan, relyef — bo'rtma barelyef — past bo'rtma, gorelyef — baland bo'rtma. Yuqorida qayd qilingan prinsiplarni tasviriy san'atning lug'atini izohlash borasida qo'llanildi.

Tasviriy san'atning izohli lug'ati.

Tasviriy san'atning izohli lug'atini tuzishda atamalarni tarjima qilish, atamalarni tuzishdagi prinsiplarning qator lingvistik tahlillarning yordami juda zarurdir.

O'quvchi-yoshlarning tasviriy san'at savodxonligini o'zlashtirishda san'at tushunchalarini o'rgatishni o'rni muhim ahamiyatga ega. Tasviriy san'at iboralarini o'quvchilarga o'rgatish uchun atamalarni spetsifik xususiyatlariga ko'ra bir necha shakllarga bo'ladi:

Rangtasvirga oid atamalar: akvarel, grizayl, axromatik, blik, (shu'-la), garmoniya, kontrast, nusxa, refleks, panno, palitra, manzara, yorug'soya, tus, tempera, faktura, kolorit, fon, freska, yorug', eskiz, ranglavha (etyud), xolst, monumental, rangtasvir, mozaika, vitraj.

Grafikaga oid atamalar: avtogravyura, kitob grafikasi, titul, frontispis, forzas, shtrix, kontur, sharj, ksilografiya, linogravyura, sgraffito, ottisk, rasm, plakat, siluet, estamp, emblema, ekslibris.

Haykaltaroshlikka oid atamalar: baland bo'rtma, bo'rtma, past bo'rtma, keramika, monumental haykal, obelisk, byust, yodgorlik, profil, simmetriya, haykaltaroshlik, haykal, statuya, sfinks.

Bezakli amaliy san'atga oid atamalar: assimetriya, afisha, glazur, gobelen, bezakli san'at, bezatuvchi, rassomchi, sahna bezagi, naqsh, ganchkorlik, yog'och o'ymakorlik, simvol (ni-shona), faktura, eskiz, eksteryer, interyer, transporant, trafaret, simmetriya, keramika, fayans, kashtachilik.

Kompozitsiyagif oid atamalar: garmoniya, kontrast, kontur, nusxa, xomaki rasm, o'lcham, format, proporsiya (nisbat), simvol, simmetriya, joylashtirish, ritm, perspektiva, chiziq, nuqta, dog', ufq, old ko'rinishi, o'rta ko'rinishi, olis ko'rinishi, ko'rish markazi, dinamik kompozitsiya, stilistik kompozitsiya.

San'at tarixiga oid atamalar: antik san'ati, qadimgi dunyo san'ati, arkada, vandalizm, uyg'onish san'ati, rus san'ati, o'zbek tasviriy san'ati, bezakli amaliy san'ati, badiiy san'at, kapitell, klassik, statuya, sfinks, freska, qarama-qarshi tuslar.

Yorug' — soya va ranglarga oid atamalar: rangtasvirlik, yorug'lik, soya, tus, yaltiroq, dog', shaxsiy soya, tushuvchi soya, yarim soya, tus munosabati, ranglar nisbati, ranglar to'yinganligi, ranglar ochligi, kontrast (qarama-qarshi), kolorit...

Tasvirlash vositalariga oid atamalar: trafaret, akvarel, mo'yqalam, siqma bo'yoq, akvarel bo'yoq, moybo'yoq, xolst, plakat perosi, tush, gnash, pastel, flomaster, format, vatman, stek, mastixin, etyudnik, palitra va hokazo.

O'quv mashg'ulotlarga oid atamalar: narsaning o'ziga qarab rasm chizish, mavzu asosida rasm ishlash, bezakli rasm ishlash, haykaltaroshlik, badiiy qurish-yasash, kompozitsiya, rangtasvir, rang-shunoslik, tasviriy san'at haqida suhbat, borliq va san'atni idrok qilish, san'atshunoslik asblari, qalamtasvir, san'at tarixi.

Tasviriy san'at turlari va janrlariga oid atamalar: rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, bezakli amaliy san'at, me'morchilik, ani-malistik janr, manzara, naturmort, maishiy janr, batal janri, tari-xiyjanr, mifologik janr.


Rassomchilikka oid atamalar: animalistik, akvarelchi, batalist, grafik, rangtasvirchi, bezakchi, marinist, ganchkor, naqqosh, port-retchi, haykaltaroshchi, sahna bezovchi, san'atshunos, dizayner, kulolchi, modelyer.

Bunday tartibda atamalarni jamlash o'quvchilarni tushunishiga yengillik tug'diradi. Ayrim bir atamalar bir bog'liqlikda qo'llaniladi, ayrimlari esa barcha turlarida foydalaniladi. Masalan, kompozitsiyaga oid: «kompozitsiya», «joylashtirish», simmetriya, ritm, proporsiya hokazolar juda tez-tez qo'llaniladigan atamalar.


Dars jarayonida yangi iboralarni tushuntirish bilan bir qatorda yangi atamalarni rasm daftariga yozdirib borish maqsadlidir. Ta'lim berish jarayonidagi bunday foydali ishning natijasida o'quvchilarda so'z boyligi rivojlanib tasviriy san'atning qisqacha izohli iboralari yig'iladi. Bu esa hozirgi o'quvchilarga juda ham foydali. Sababi tajriba shuni ko'rsatadiki rasmni ko'ngildagiday chizadigan o'quvchilar ko'plab atamalarni izohini bilishmaydi. Masalan, reproduk-siya, illustratsiya kabi atamalarni farqini ajrata olmaydi. Shu borada o'z fikrlarini tushuntirishga so'z boyligi etishmaydi. Bular, ayniqsa, tasviriy san'atning badiiy asarlari bilan tanishtiradigan suhbat darslarida tez-tez uchrab turadi.

O'quvchilarni so'z boyligini kengashtirish, milliy g'oyaviy dunyo-qarashini shakllantirish, tasviriy san'at iboralarini o'zlashtirish masalalarini yechishda izohli atamalarning foydasi juda kattadir. Lekin hozirgi kunda umumta'lim maktablar uchun tasviriy san'atning izohli lug'ati yo'q va yaratilmagan. Bu kabi masalalarni hal qilish mutaxassislar oldida turgan juda muhim vazifalardan biridir.

2.3. O`zbek xalq rassomlarning tarixiy obidalarimizni madh etuvchi asarlari.




2.3.1-rasm. Boris Brinskix 1923-2004 “Xiva” Mato, moybo'yoq 1960 y




2.3.2-rasm. Boris Brinskix 1923-2004 “Xiva darvozalari” Mato, moybo'yoq 1960 y



2.3.3-rasm. Boris Brinskix 1923-2004 “Eski shahar” Mato, moybo'yoq 1970 y



2.3.4-rasm. Boris Brinskix 1923-2004 “Go’r-Amir” Mato, moybo'yoq 1971 y



2.3.5-rasm. Boris Brinskix 1923-2004 “Qo’y-darvaza” Mato, moybo'yoq 1979 y




2.3.6-rasm. Valentin Jmakin 1928-2007 “Buxoro” Mato, moybo'yoq 1958 y




2.3.7-rasm. D. Kojushko 1865 “Bibixonim. Ichki peshtoqi” XX asr boshi




2.3.8-rasm. Ivan Kazakov 1873-1935 “Ulug’bek madrasaning so’l minorasi” XX asr boshi



2.3.9-rasm. D. Kojushko 1865 “Shohi Zindaning asosiy peshtoqi” XX asr boshi



2.3.10-rasm. Tursunali Kuziev 1951 “Qo'ling mehnatda bo'lsin...” 1998 y



2.3.11-rasm. Tat'yana LI 1965 “Xiva. №1” 2005 y




2.3.12-rasm. Tat'yana LI 1965 “Xiva. №2” 2005 y




2.3.13-rasm. Tat'yana LI 1965 “Xiva. №3” 2005 y




2.3.14-rasm. Lidiya Lyaminskaya 1918-1998 “Bibixonim” 1960 y




2.3.15-rasm. Faim Madgazin 1930 “Xiva darvozalari” 1962 y




2.3.16-rasm. Erkiyor Masharipov 1948 “Paxlavon Mahmud maqbarasi” 1996 y



2.3.17-rasm. Pyotr Mordvintsev 1929-1998 “Go'r-Amir” 1983 y



2.3.18-rasm. Aleksandr Perov 1935-2009 “Ota-Polvonov portreti” 1973 y



2.3.19-rasm. Vladimir Petrov 1920-1997 “Labihovuz” 1968 y




2.3.20-rasm. Ashrof ROZIQOV 1910-1979 “Samarqandda bahor” 1958 y




2.3.21-rasm. Viktor SOSEDOV 1929-1990 Buxoro. “Usti yopiq bozor” 1960y



2.3.22-rasm. Yuriy Taldikin 1932-2002 “Eski Buxoroning ko’chalari (Chor-Minor)” 1982 y




2.3.23-rasm. Georgiy Tkachyov 1920-1999 “Muzey shahar – Xiva” 1979-1981y




2.3.24-rasm. Georgiy Tkachyov 1920-1999 “Shohi Zinda” 1995y



2.3.25-rasm. Rustam Xudoyberganov 1946 “Xiva ko'chasi” 1997y



2.3.26-rasm. Rustam Xudoyberganov 1946 “Kechki Kaltaminor” 1997y




2.3.27-rasm. Muborak Yo'ldoshev 1934 “Samarqand bozori” 1983y




2.3.28-rasm. Muborak Yo'ldoshev 1934 “Karvon Saroy” 1997 y



2.3.29-rasm. Muborak Yo'ldoshev 1934 “Ahmad Yassaviy” 1997y



2.3.30-rasm. Muborak Yo'ldoshev 1934 "Gur-Amir" 2001y



2.3.31-rasm. Muborak Yo'ldoshev 1934 "Samarqand. Bibixonim bozori" 2005y

UMUMIY XULOSA

«Tasviriy san`at va muhandislik grafikasini o`qitish metodikasi» fani dasturi umum ta`lim maktablari va o`rta maxsus, kasb-hunar kollejlarida muhandislik grafikasi tarkibidagi fanlarning mashg`ulotlarini to`g`ri tashkil qilish, o`quvchilarda shu fan bo`yicha puxta bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish uchun eng samarali metodik vositalarni tanlashda, bo`lajak o`qituvchilarga yordam berish masalalarini qamrab oladi.

Jamiyatdagi zamonaviy texnologiyalar, jumladan, ta`lim sohasida ham bo`layotgan inqilobiy o`zgarishlar mutaxassislariga yangi funksional talablarni qo`ya boshladi. Endilikda malakali mutaxassisdan faqatgina o`zining bevosita xizmat vazifasini yaxshi bajarishgina emas, balki yangi uslublarni topib amaliyotga kiritish, mustaqil qaror qabul qila bilish va ijodiy ishlay olish kabi ko`nikmalar talab qilinadi, o`qitish metodlari va yo`llari bo`yicha mustahkam bilimga ega bo`lishi, o`qitishning tub maqsadini tasavvur qila olishi, unga erishish yo`llari va vositalarini bilishi lozim. Talabalarning bu bilimlarni puxta egallashiga yordam berish “Muhandislik grafikasini o`qitish metodikasi” kursining asosiy vazifalaridan biridir. Uning oldida pedagogika fani tarmog`i sifatida quyidagi vazifalar turadi:

Tasviriy san`at va muhandislik grafikasini o`qitish metodikasi aniq maqsadlarini va uning fan sifatida bilim berish hamda tarbiyaviy ahamiyatlarini aniqlash;

O`qitishning mazmuni va tuzilishini aniqlash;

O`quvchilarning mustahkam bilim, ko`nikma va malakalarini ta`minlovchi o`qitishning eng samarali uslub, vosita va shakllarini ishlab chiqish;

O`quvchilarning bilim olish jarayonini tadqiq qilish.

Yuqorida zikr etilgan maqsad va vazifalarni hal qilishda o`qitishning zamonaviy interaktiv metodlari va axborot texnologiyalaridan o`z o`rnida unumli foydalanish ijobiy natija berishi bilan ahamiyatlidir.

«Tasviriy san`at va muhandislik grafikasini o`qitish metodikasi» fanini o`qitishda ko`rgazmali qurollar, modellar va boshqa bir qancha zamonaviy texnologiyalardan foydalaniladi. Dars jarayonida talabalar faolligini oshirish uchun mashg`ulotlarda savol-javob, diskussiya, suhbat va didaktik o`yinlar hamda interaktiv texnologiyalar, ijodiy faoliyatini rivojlantirish, tabaqalashtirib o`qitish, kredit texnologiya va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish nazarda tutiladi.

O`zimning yozgan Bitiruv ishim orqali, o`quvchi yoshlarga kelajakda bilim va ko`nikmalar berishda unimli foydalanaman deb o`ylayman va albatta maqsadimga erishaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., 1992.
2. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi qonuni. -T., 1997.
3. O`zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
4. O`zbekiston Respublikasining Davlat ta’lim standarti, T.2003.
5. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O`ZBEKISTON” 2016
- 6 Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- T.: Moliya, 2003.-17b.
- 7 Rubinshteyn L. S. Psixologiya lichnosti.-M.: Prosveshenie,1991-237 s.
- 8 Raykov B. E. Slovesno`e formo` i metodo` obucheniya.-M.: Znanie,1997.-282 s.
- 9 Botir Boymetov Qalam tasvir “MUSIQA” nashriyot TOSHKENT-2006
- 10 B.Z.Azimova, R.Rajabov,S.F.Abdirasulov,Tasviriy san`atga oid atamalarning izohli lug`ati.Toshkent -1994.
- 11 S. Abdiraulov Tasviriy san`at atamalari. Toshkent- 2003
- 12 R.Hasanov. ”Maktabda tasviriy san`at o`qitish metodikasi” Toshkent.-“Fan”.2004.
- 13 N.Oydinov. Rassom o`qituvchilar tayyorlash muammolari. Toshkent.-“O`qituvchi” –“Ziyo Noshir”, 1997.
- 14 M.Nabiyev. Rang shunoslik. Toshkent “O`qituvchi”, 1995.
- 15 R.Hasanov, H.Egamov “Tasviriy san`at va badiiy mehnat darslari” Toshkent “O`QITUVCHI” 1997 y
- 16 www.nbgf.intal.uz
- 17 www.edu.uz
18. www.ZiyoNET.uz

Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti “Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi” ta`lim yo`nalishi bitiruvchi IV-kurs talabasi Saipova Gulnisa Payzullayevnaning “Tarixiy me`morchilik obidalarini grizailda tasvirlash va o`qitish metodi.” mavzusidagi bitiruv ishiga

ILMIY RAHBARNING XULOSASI

Talaba Saipova Gulnisa Payzullayevnaning “Tarixiy me`morchilik obidalarini grizailda tasvirlash va o`qitish metodi” mavzusidagi bitiruv ishi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Bitiruv ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Ishning birinchi va ikkinchi boblarida mavzuni to`lig`ligicha ochib berishga harakat qilgan bo`lib, tadqiqot usullaridan foydalanib, qimmatli ma`lumotlar berilgan.

Xulosa qismida mavzudan kelib chiqqan holda uslubiy tavsiyalarini ifodalab bergan. Saipova Gulnisa Payzullayevnaning bilimga chanqoq izlanuvchan ekanligi bitiruv ishida namoyon bo`lib turibdi. Kelgusida zamon talablaridagi mutaxassis bo`lib yoshlar tarbiyasida faol ishtirok etuvchi mutaxassis bo`lishiga ishonaman.

Bu talabamiz bitiruv ishini mustaqil ravishda yozganligi bilan ajralib turibdi. Mavzularning dolzarbligi bugungi kun maktab o`quvchilari uchun muhim hisoblanadi. Uning muallifi Saipova Gulnisa Payzullayevnaning – Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi ta`limiy yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olishga loyiqdir.

“Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi”

kafedra o`qituvchisi: _____ **S.T.Sa`diyev**

Navoiy davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti “Tasviriy san`at va
muhandislik grafikasi” ta`lim yo`nalishi

bitiruvchi IV-kurs talabasi Saipova Gulnisa
Payzullayevnaning “Tarixiy me`morchilik
obidalarini grizailda tasvirlash va o`qitish metodi”
mavzusidagi bitiruv ishiga

T A Q R I Z

Ushbu yozilgan bitiruv ishining kirish qismida tasviriy san`at fanining ahamiyati haqida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan ta`lim sohasidagi qororlari va kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Davlat ta`lim standartlarida tasviriy san`at fani oldiga qo`yilgan asosiy vazifalarini, tasviriy san`at fanining fan va texnika taraqqiyoti davridagi ahamiyati haqida ma`lumotlar yozilgan.

Mavzuning tahliliy qismida bugungi kunda umum-ta`lim maktablarda tasviriy san`at fanini o`qitish, o`rgatish, u fanni rivojlantirish yo`lga qo`yilmoqda. “Tarixiy me`morchilik obidalarini grizailda tasvirlash va o`qitish metodi” mavzusini o`qitishning tahliliy qismi, uning yoritilishi, chizilishi texnologiyasi haqida ma`lumot berilgan.

Amaliy qismida chizishning har xil metodlari, ularning turlari, mavzuni ochib berishda ilmiylik, izchillik tamoyili chizishda onglik va faollik, kuzatish, taqqoslash bo`yicha uslubiy amaliy mulohazalar yoritilgan.

Saipova Gulnisa Payzullayevnaning “Tarixiy me`morchilik obidalarini grizailda tasvirlash va o`qitish metodi” mavzusidagi bitiruv ishini men “Yaxshi” deb baholayman.

Taqrizchi

Navoiy Madaniyat va san`at maktabi
o`qituvchisi; *F.Aslonov*